UDK: 370.152.8 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a162**

INTEGRATSION TA'LIMI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING INTELLEKTUAL MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INTERFAOL METODLARI

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ

INTERACTIVE METHODS FOR THE DEVELOPMENT OF THE INTELLECTUAL CULTURE OF FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF INTEGRATIVE EDUCATION

Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich[1]

[1]Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich – Qo'qon davlat pedagogika instituti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada hozirgi davrda jahonda shiddat bilan kechayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot ta'limga, xususan oliy ta'lim tizimiga jiddiy e'tibor qaratishni taqazo qilayotganligi, har qanday mamlakatning kelgusi istiqboli undagi raqobatbardosh kadrlarning yuksak intellektual salohiyatiga bog'liqligi, bo'lg'usi kadrlarning intellektual madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida falsafa fanidan oqilona foydalanishning pedagogik jihatlari haqida so'z yuritiladi.

Аннотация

В статье бурное научно-техническое развитие в мире в настоящее время требует серьезного внимания к образованию, особенно системе высшего образования, от высокого интеллектуального потенциала ее конкурентоспособных кадров, будущих кадров зависят дальнейшие перспективы любой страны. Обсуждаются педагогические аспекты рационального использования философии в формировании и развитии интеллектуальной культуры.

Abstract

In the article, the rapid scientific and technical development in the world at the present time requires paying serious attention to education, especially the higher education system, the future prospects of any country depend on the high intellectual potential of its competitive personnel, the future personnel Pedagogical aspects of the rational use of philosophy in the formation and development of intellectual culture are discussed.

Kalit so'zlar: *analitik, intuitiv, fenomenologik, germenevtik, sinergetik metodlar, «Insert», «sofist» (demagog, safsataboz), «ommaviy madaniyat».*

Ключевые слова: *аналитический, интуитивный, феноменологический, герменевтический, синергетический методы, «вставка», «софист» (демагог, софист), «массовая культура».*

Key words: *analytical, intuitive, phenomenological, hermeneutic, synergetic methods, "Insert", "sophist" (demagogue, sophist), "mass culture".*

KIRISH

Zamonaviy falsafa ta'limi asosida bo'lajak o'qituvchilar intellektual madaniyatini rivojlantiruvchi pedagogik sharoitlar tizimi, shakllari va usullari professor-o'qituvchilar tomonidan ongli tarzda loyihalashtiriladi va muayyan pedagogik maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan yaxlit ilmiy-didaktik hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Falsafa ta'limidagi vazifalarning eng birinchisi, albatta, bo'lajak o'qituvchilar uchun noma'lum bo'lgan va bo'lajak o'qituvchilar mustaqil erishishi qiyin yoki mumkin bo'lmagan muayyan axborotni, muhim falsafiy g'oya va qarashlarni unga bevosita yetkazib berishdir. Zamonaviy falsafa ta'limining ikkinchi pedagogik vazifasi muayyan axborotni bo'lajak o'qituvchilar ko'r-ko'rona o'zlashtirishiga emas, balki ongli qabul qilishiga erishishdir. Buning uchun falsafa o'qituvchisi bo'lajak o'qituvchilarda axborotni mustaqil tahlil etish, fikriy izlanishni amalga oshirish ko'nikmalarini tarbiyalashi kerak. Fanning navbatdagi, eng oliy vazifasi bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini hosil qilish bo'ladi. Buning uchun ustoz bo'lajak o'qituvchilarga falsafiy qarashlar orasidagi ziddiyatlarni payqash, ularga nisbatan o'z munosabatini shakllantirish va xulosalarini oldinga surish kabi mustaqil, ijodiy mushohada ko'nikmalarini shakllantirishi kerak.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual madaniyatini integratsion ta’lim asosida rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlarni ikki guruhga – G‘arb va Sharq mamlakatlarida o‘rganilishi, deb ajratish mumkin.

G‘arb mamlakatlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual madaniyatini integratsion ta’lim asosida rivojlantirish masalalari Sh.Legg, M.Hatter, A.Roubek, N.Hamfrey, K.Klifton, H.Broud, R.Felder, R.Brent, J.Doland, P.Kollinslar tomonidan tadqiq etilgan.

Sharq mamlakatlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual madaniyatini integratsion ta’lim asosida rivojlantirish metodikasini olimlar S.Panturat, P.Syuvonnoi, J.Ketchaturat, M.Salvaratnamlar o‘z izlanishlarida tahlil qilgan.

O‘zbekistonda bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual madaniyatini integratsion ta’lim asosida rivojlantirish muammosini O.Musurmonova, S.T.Shirmatov, I.B.Siddiqov, D.X.Turdiboev, S. Fayzulina kabi faylasuf, tarixchi va pedagog olimlar tadqiq qilganlar. SHunga qaramasdan, bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual madaniyatini integratsion ta’lim asosida rivojlantirish metodikasi alohida tadqiqot muammosi sifatida o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Falsafiy metodlar fikrlash faoliyatining o‘ziga xos usuli hisoblanadi. Ularga analitik, intuitiv, fenomenologik, germenevtik, sinergetik metodlar kiradi. Shuningdek, mantiq fani doirasidagi tahlil, induksiya va deduktsiya metodlari ham mavjud.

Falsafa ta’limi asosida bo‘lajak o‘qituvchilar tafakkurini o‘stirishda avval osonroq uslublar maqsadga muvofiq. Masalan, «Insert» uslubi yordamida bo‘lajak o‘qituvchilar, asosan, falsafiy matnlar yordamida o‘z tahliliy va tanqidiy tafakkurlarini rivojlantiradilar. SHu orqali falsafiy g‘oyalarni tushunishni o‘rganadilar.

Falsafa ta’limida bo‘lajak o‘qituvchilar ning intellektual darajasini o‘stiradigan uslublarning eng sinalgan va eng qadimiy uslubi bo‘lgan «suqrotcha bahs»ga hech qaysi uslub yeta olmaydi[1]. Zero, aynan shu uslub dialektik fikrlash uslubidir va aynan shu uslub dunyoga Suqrot, Platon, Aristotel, I.Kant, Gegel kabi ko‘plab mutafakkirlarni yetishtirgan. Ayni shu uslub Platon dialoglarida aks etgan va hozirgacha insoniyat yetuk mutafakkirlarini kamolotga yetkazishda davom etmoqda. Darsda o‘qituvchi Suqrotning, bo‘lajak o‘qituvchilar esa Suqrotning suhbatdoshi rolini o‘ynaydilar. Ta’kidlash joizki, bu uslubni falsafani chuqur biladiganlar o‘zlashtirishi mumkin va maqsadga muvofiqdir. Bu uslub masalaning javobi bahs qatnashchilaridan biriga ayon bo‘ladigan platoncha (suqrotcha) dialog emas, albatta. Bu savollar va ularga javoblar to‘qnashuvi jarayonida kelib chiqadigan o‘z-o‘zidan tashkillanishi kutiladigan nochiziqli kognitiv-kommunikativ muhitdir.

Mantiq fani doirasida tahlil, induktsiya va deduktsiya metodlari bo‘lajak o‘qituvchilar aqliy qobiliyatini o‘stirishda muhim ahamiyatga ega.

Induksiya metodi xususiylikdan umumiylikka qarab xulosalar chiqarish, ayrim voqea-hodisalarni o‘rganish asosida umumiy qonun va qoidalar yaratish jarayonini qamrab oluvchi ilmiy-falsafiy metod. Uning vazifasi ayrim empirik hodisalardan umumiy nazariy bilim olish jarayonlarini analiz qilishdir[2]. Bo‘lajak o‘qituvchilar intellektual saviyasini rivojlantirishda ulardagi bilimlarni tahlil qilish, taqqoslash, qiyosiy tahlil qilish orqali yangi xulosalarni olishga o‘rgatish juda muhim hisoblanadi.

Deduktsiya metodi bilish jarayonida fikrda umumiy bilimlardan juz’iy, alohida bilimlarga tomon yo‘nalish usuli hisoblanadi. Deduktsiya vositasida bo‘lajak o‘qituvchilar bir sinf, bir jins, bir guruh narsa va hodisa to‘g‘risida umumiy bilimlardan ularning har biri haqida alohida bilimlarni hosil qiladi. Insonning bilish tajribasidan shu narsa ma’lumki, agar biron xususiyat bir toifa yoki bir jinsdagi hamma narsa yoki hodisalarga xos bo‘lsa, bu xususiyat shu toifa yoki jinsga oid har bir narsa yoki hodisaga ham xos bo‘ladi. Induktiv-deduktiv fikrlash tarzi bo‘lajak o‘qituvchilarda tanqidiy fikrlashi va analitik tahlil qobiliyatini rivojlantiradi.

Germenevtik metod – ijtimoiy borliqni asoslash, izohlash metodologiyasi sifatida talqin qilinadi[3]. Falsafiy ma’noda tushunish olamni anglashning asosiy shakli, tushunish tabiatni, tarixni va ijtimoiy-madaniy hodisalarni mohiyatiga kirib borish va ularni qayta tiklash, asliyatiga qaytarish jarayonidir. Bo‘lajak o‘qituvchilar intellektual madaniyatini yuksaltirishda falsafaning germenevtik metodi juda samaralidir. Sababi, ta’limdagi asosiy muammo tushunish va tushuntirish jarayonining buzilganligidadir. Germenevtik metod tushunish va tushuntirish muammosini tadqiq qilish orqali fan ruhiyatiga kirib borish zarurligini ta’kidlaydi. Falsafa ta’limining zaruriyati shundaki, bo‘lajak o‘qituvchilar ga fikrlar, qoidalar, atamalar, faktlarning formulalarini emas, fikrlashni anglash,

tafakkur qilish, yangisini o‘zi yaratishi zaurligini o‘rgatish zarur. Shunday ekan, falsafiy fanlar – falsafa, etika, estetika va mantiq fanlari orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni tafakkur qilishga, teran fikrlashga, ta’limdagi qoliplar ichidan chiqishga, voqelikning ruhiyatiga kirishga o‘rgatish, shubhasizki, bo‘lajak o‘qituvchilar intellektual madaniyatini yuksaltirishning zamonaviy pedagogik usuli bo‘ladi.

Analitik metod – bo‘lajak kadrlarda axborotlarni tahlil qilish, ular ichidan to‘g‘ri-noto‘g‘risini ajratish, asosli va asossizini saralay bilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Analitik tahlil metodi muhokama yuritish, isbotlash uchun tushuncha va elementlar tamoyilini aniqlash[4] metodidir. XX asrda shakllangan analitik falsafa umummilliy formal mantiq tilini yaratish zarurligini ta’kidlagan holda bu til asosida barcha tarixiy merosni qayta tahlil qilish zarur degan xulosaga keladi. Ularning davosi tarixiy meros mohiyati va mazmuni o‘zgarib, boshqa yo‘lda ketayotganligi haqidagi gipoteza bo‘ladi. Ta’limda analitik falsafa metodini qo‘llash bo‘lajak o‘qituvchilarda axborotni, gipotezalarni, paradigmalarni va qonun-qoidalarni tahliliy baholash ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu esa, bo‘lajak mutaxassislarning intellektual madaniyatini yuksaltiradi.

Skeptitsizm metodi – yunoncha «skepticos» – «shubhalanaman» degan ma’noni anglatadi. Skeptiklar fikricha, haqiqat subyektivdir. «Insonning muayan guruhga dahldorlik tuyg‘usi mudom aqlni xiralashtirib, uni noxolis fikrlashga, yolg‘on g‘oyalarga ishonishga undaydi. Bertran Rassel insondagi individul o‘ziga xosliklarni shakllantirish orqali ishonuvchanlikka, noxolis fikrlashdan xalos qilish mumkinligini yozadi. Buni qanday amalga oshirish mumkin? Insonlarga fikrlarni emas, fikrlashni o‘rgatish orqali! Fikrlash esa muayyan turtki bo‘lmasa, o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi. Agar yosh bolaga ma’lum bir fikr mutloq haqiqat o‘laroq o‘rgatilsa, uning fikrlashga ehtiyoji qolmaydi. Uning uchun o‘zgalar bosh qotirib masalani hal qilib bo‘lgan-da»[5]. Ta’lim bo‘lajak o‘qituvchilar ni shaxsga aylantirishi uchun undagi taqlidchilik instinktini zaiflashtirishi kerak. Taqlidchilik va ishonuvchanlikka eng katta zarba beruvchi xususiyat – bo‘lajak o‘qituvchilar dagi skeptiklikdir. To‘g‘ri, ba’zilar skeptiklik deganda har narsaga huda-behuda shubhalanaverishni tushunadi. Biroq Rassel taqlidchilik va ishonuvchanlikka qarshi metod sifatida taklif etayotgan skeptiklik, agar yetarli asos bo‘lmasa, hech qanday g‘oya, fikr yoki ma’lumotga ishonmaslikni anglatadi. Bir qarashda sodda ko‘ringan bu pritsip insonni mustaqil shaxsga aylantiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ham skeptiklikni rivojlantirish orqali ularni bilimlarini chuqurlashtirish, haqiqatni ko‘ra olish, tanqidiy fikrlash, axborotni analitik tahlil qilish sifatlarini o‘stiradi.

Tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun, avvalo, tanqidiy tafakkurning o‘zi qanday bo‘lishini aniqlab olishimiz kerak. Aslida, asl falsafiy tafakkurda skeptitsizm elementlari bo‘lishi zarur. Zero, tanqidiy tafakkuri shakllangan kishini hech kim o‘z qo‘g‘irchog‘iga aylantira olmaydi va u o‘z hayotida boshqalarga nisbatan kam xatoga yo‘l qo‘yadi. Lekin tanqidiy tafakkur nimaligini tushunish borasida katta chalkashliklar ham mavjud. Bu chalkashliklar orasida eng yomoni – bo‘lajak o‘qituvchilarning tanqidni faqat tashqariga qaratib, o‘zining xato va kamchiliklarini ko‘ra olmasligida. Bo‘lajak o‘qituvchilar -yoshlar salbiy ma’nodagi «sofist» (demagog, safsataboz) kelib chiqmasligi uchun tanqidiy tafakkurning asosiy xususiyatlarini aniqlab olishi zarur.

Tahlil va natijalar. Tanqidiy tafakkur muayyan axborotni o‘zgalar fikridagi xato va kamchiliklarni izlab topish maqsadiga emas, balki uni tahliliy o‘rganishga yo‘nalgan tafakkurdir. Shunga ko‘ra chinakam, oliy madaniyat doirasidagi tanqidiy tafakkur quyidagi jihatlarni o‘z mazmuniga qamrab oladi:

- o‘z fikriga qarshi turgan yangi fikr va g‘oyalar uchun ochiqligi;
- o‘z fikr va qarashlarida xatolarga yo‘l qo‘ymaslik, borlarini bartaraf etishga intilishi;
- turli fikrlar orasidan to‘g‘ri va noto‘g‘rilarini tarafkashlik qilmasdan, obyektiv ravishda farqlashga intilish;
- o‘zi tushuna olmagan masala yuzasidan tanqidiy fikr bildirmaslik, tushunmasligini tan olish;
- fikrdagi asoslangan va asoslanmagan xatolarni farqlash va h.k.

Tanqidiy tafakkur asl ma’nodagi (demagog bo‘lmagan) faylasuflarda, genial olimlarda juda kuchli rivojlangan bo‘ladi. Demak, bo‘lajak o‘qituvchilarni intellektual salohiyatli qilib tarbiyalash uchun ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatini uyg‘otish va rivojlanish uchun shart-sharoit yaratishimiz kerak. Bunda falsafa ta’limidagi tanqidiy ruh, tafakkur tarzi eng muhim va zaruriy shart-sharoit, zamin, asos bo‘lib xizmat qiladi. Lekin tanqidiy tafakkur oson va tez emas, balki muayyan bosqichlarni bosib o‘tadigan murakkab nazariy va didaktik jarayon bo‘lgani uchun o‘qituvchidan muayyan metodik tayyorgarlikni taqozo etadi.

Falsafa darslarida tanqidiy tafakkurni shakllantirish, asosan, quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

- tanqidiy tafakkur uchun shart-sharoit, zamin yaratish.
- tanqidiy fikrlashga taklif etish (chorlash).
- materialni tanqidiy anglab yetish.

Bo‘lajak o‘qituvchilar intellektual madaniyatini yuksaltirishda tanqidiy tafakkurning konkret ahamiyati quyidagilardan iborat:

- tanqidiy tafakkur bo‘lajak o‘qituvchilar ni muqobil fikrlashga va muqobil fikrlarni o‘rganishiga yordam beradi.
- o‘quv meterialini aniq va mustahkam tushunilishiga xizmat qiladi;
- darsni ko‘r-ko‘rona emas, ongli o‘zlashtirish, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini shakllantirish, oldinga surish va asoslashga o‘rgatadi, kishining o‘ziga ishonchini orttiradi. Kishi shaxs sifatida shakllanishining asosiy faktori bo‘lib xizmat qiladi;
- tahlil etilayotgan material yoki masalaning yangi qirralarini ko‘rish, yangi masalalar va ularning yechimini kashf etilishiga olib keladi;
- o‘zgaruvchan hayot tomonidan oldinga suriladigan yangidan yangi masalalarga mustaqil javob izlash ko‘nikmalarini tarbiyalaydi;
- o‘zga bilan muloqot uchun va jamiyat uchun ochiq bo‘lishini ta’minlaydi.
- to‘g‘ri shakllantirilgan tanqidiy tafakkur o‘zga insonlar fikriga hurmat, ular bilan erkin bog‘lanish, o‘zaro tushunish muhitini shakllantiradi;

«Sabab - Dalil – Natija» metodi falsafa ta’limida muammolar ildizini, hodisalar mohiyatini aniqlash imkonini beradi. Bu usul mavzuni tushuntirish bosqichida samarali bo‘ladi, u bo‘lajak o‘qituvchilar ning istiqbollarni ko‘rish va voqealarning keyingi yo‘nalishini prognozlashga imkon beradi, o‘quv materiallari bo‘yicha mustaqil o‘rganishga undaydi. Mantiqiy zanjirni hosil qilish uchun uning tarkibiy qismlaridan faqat bittasi tavsiya etiladi.

«Yaxshi – yomon» metodi bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv mashg‘ulotlarida ruhiy faolligini oshirishga, ziddiyatli holatlarda qanday xatti-harakatni amalga oshirish haqidagi g‘oyalarni shakllantirishga qaratilgan. Har qanday obyektiv, vaziyatda ijobiy va salbiy tomonlarni topish va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish qobiliyatini shakllantirish uchun yordam beradi.

Falsifikatsiya metodi dars mashg‘ulotlarida faqat inkor etish orqali tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud bo‘lgan bilimgina ilmiy bilim bo‘lishini asoslash uchun qo‘llaniladi. Mazkur metodni K. Popper ta’riflab bergan bo‘lsa-da, uning asosiy g‘oyasi ilgari ham tadqiq qilingan edi. Masalan, F. Nitsshe «Yaxshilik va yomonlikning narigi tomonida» asarida: «Nazariyani inkor etish mumkin emasligi uning eng muhim jihatlaridan biridir. Aynan mana shu jihati bilan u eng nafis aql egalarini o‘ziga tortadi»,- deb yozadi[6]. Ushbu metod asoschisi K.Popper hech nima haqida tor, bir tomonlama, o‘z fikrini yagona haqiqat sifatida uqtiruvchi xulosa chiqarmaydi, balki ularni tanqid qilish uchun ochiq joy qoldiradi. U aqlni, o‘quvchini bahsga tortish uchun qarashlarni, nazariyalarni atayin keskin tanqid qiladi, biroq uning epistemologiyasi faqat rad etishga emas, balki tanqid orqali ratsional dalil, ratsional fikr va ratsional ta’limot izlashga qurilganini unutmaslik zarur»[7]. Bugungi kunda bizning bo‘lajak o‘qituvchilarimiz ham Popperning tanqidiy ratsionalizmi aosisda shakllangan falьsifikatsiya metodi o‘zlashtirishlari va ilmiy-ijodiy faoliyatlarida qo‘llashlari zarur. Falsafa fanlari doktori Viktor Alimasov xulosasiga ko‘ra, «bilim (bilish), ilm-fan va ilmiy nazariyalarning yuzaga kelishi, rivojlanishi muammolardan, muammolarni qo‘yishdan boshlanadi, tajriba, kuzatuv esa nazariyalarni sinab ko‘rish, asoslash usullaridir. Ilmiy bilimlarning rivojlanishi tajriba va kuzatuvlarning ko‘payganida emas, balki ilmiy nazariyalarni tanqid, falьsifikatsiya, rad etilganida hamda shu tarzda yanada mukammalroq, yanada qoniqarliroq nazariyalar yaratilganidadir. Tanqidiy ratsionalizm nazariyalarni qayta va qayta tanqid qilish orqali sinab ko‘rishga undaydi, ularning yashovchanligini aniqlaydi hamda ulardagi regressiv jihatlarini bartaraf etish yo‘llarini topadi.


Falsafa ta’limidagi **sinergetik metod** olamni yangicha izohlashga qaratilgan, murakkablikni o‘rganadigan, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning tabiatini bilishga qaratilgan ilmiy yo‘nalish, tafakkur uslubi hisoblanadi. Sinergetika, asosan, fizik, kimyoviy, biologik hodisalarning hamda iqtisodiy, texnik, ijtimoiy jarayonlarning o‘z-o‘zini tashkil etish, o‘z-o‘zini boshqarish, tartiblilikdan tartibsizlik (xaos)ga o‘tishi, chiziqli va chiziqsizlik kabi holatlarning mohiyati va qonuniyatlarini izohlashi orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘zgacha tafakkur uslubini shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak kadrlar intellektual madaniyatini innovatsion usulda falsafa ta’limi asosida yuksaltirish dolzarb lekin, ko‘r-ko‘rona, dogmatik ravishda emas, ongli tanqidiy tafakkur asosida bo‘lishi lozim. Jamiyatimiz uchun zararli, yot mafkura va «ommaviy madaniyat» g‘oyalarining kirib kelishiga qarshi tura oladigan yoshlarni tarbiyalashda ratsionalistik falsafaning o‘rni beqiyosdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Changwong, K., Sukkamart, A., & Sisan, B. (2018). Critical thinking skill development: Analysis of a new learning management model for Thai high schools. *Journal of International Studies, 11*(2), 37-48. doi:10.14254/2071-8330.2018/11-2/3
2. Фалсафа қомусий луғат. Тошкент.:Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2004. -Б. 164.
3. Фалсафа энциклопедик луғут. –Тошкент.: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» нашриёти. 2010. –Б.77.
4. Фалсафа қомусий луғат. Тошкент.:Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. 2004. -Б. 25.
5. Bertrand Russell. Sceptical esseys. London: Routledge, 2004, -P. 1-14.
6. Shermuhamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. –Toshkent: Aloqachi. 2008, -B.246.
7. Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш санъати. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ нашриёти. 2008, -Б.134-145.
8. Akmaljonovich, K. J. (2022). Role Of Philosophy Education In Forming Intellectual Culture In Future Teachers. Journal of Positive School Psychology, 6(11), 1366-1371.
9. Akmaljonovich, K. J. (2022). Objective and Subjective Socio-Pedagogical Factors for the Formation of Intellectual Culture in Future Teachers. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, *3*(12), 148-151.


Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual madaniyatini rivojlantirish metodikasi
Talabalardagi intellektual faoliyat;
Falsafiy fanlar tizimi
Intellektuallik sifatlari va ko‘nikmalar;
Falsafiy mushohada;
Falsafa
Falsafiy bilim, falsafiy dunyoqarash, falsafiy ong, falsafiy-refleksiv tafakkur
Axloqiy munozara;
Etika
Axloqiy intellekt, axloqiy iroda, axloqiy ongli tanlov
Estetik munosabat;
Estetika
Estetik ong, estetik intellekt, estetik munosabat
Mantiqiy tahlil;
Mantiq
Mantiqiy bilim, induksiv va dedutsiv yondashuv, analitik tafakkur
Amalga oshirish texnologiyasi.
O‘quv va tarbiya jarayonini zamonaviy talablar asosida rejalashtirish va amalga oshirish;
Ta’lim jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish;
Falsafa ta’limi asosida intellektual madaniyatga oid bilim va malakaga ega bo‘lish;